



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№7(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 50 sahifa,  
1-iyul, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<a href="#">Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</a>	
Talabalarning xulqidagi deviatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<a href="#">Ergashev Jo'rabek Xalilovich</a>	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<a href="#">Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</a>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixologingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<a href="#">Jonbo'tayeva Maxarramxon</a>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
<a href="#">Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</a>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<a href="#">Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</a>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<a href="#">Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</a>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<a href="#">Norbutayeva Dilafruz Abdurasulovna</a>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<a href="#">Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</a>	

# TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINING PSIXOLINGVISTIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI

Jonbo'tayeva Maxarramxon

Andijon davlat pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqot tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va lingvistik asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda tinglab tushunish jarayonining kognitiv, psixologik hamda lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tinglovchining diqqat, xotira, idrok va tafakkur kabi psixologik omillari, shuningdek, fonetik, leksik va grammatik bilimlarning tinglab tushunish kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** tinglab tushunish kompetensiyasi, psixolingvistik asoslar, lingvistik asoslar, idrok, xotira, diqqat, nutq faoliyati, kommunikativ kompetensiya, chet tili ta'limi.

**Abstract:** This study is devoted to investigating the psycholinguistic and linguistic foundations of listening comprehension competence. The study analyzes the cognitive, psychological, and linguistic characteristics of the listening comprehension process. It also examines the role of psychological factors such as attention, memory, perception, and thinking, together with phonetic, lexical, and grammatical knowledge in the development of listening comprehension competence.

**Key words:** listening comprehension competence, psycholinguistic foundations, linguistic foundations, perception, memory, attention, speech activity, communicative competence, foreign language education.

**Аннотация:** Данное исследование посвящено изучению психолингвистических и лингвистических основ компетенции аудирования. В исследовании анализируются когнитивные, психологические и лингвистические особенности процесса восприятия речи на слух. Освещается роль таких психологических факторов, как внимание, память, восприятие и мышление, а также значение фонетических, лексических и грамматических знаний в формировании компетенции аудирования.

**Ключевые слова:** компетенция аудирования, психолингвистические основы, лингвистические основы, восприятие, память, внимание, речевая деятельность, коммуникативная компетенция, обучение иностранному языку.

## KIRISH

Tinglab tushunish kompetensiyasi boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy faoliyatini shakllantiruvchi eng muhim komponentlardan biridir. Ushbu kompetensiyaning samarali rivojlanishi o'quvchining nafaqat tilni o'zlashtirishiga, balki fikrlash jarayonining faollashishiga va muloqotga kirishish malakasining takomillashishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tinglab tushunish jarayonini ilmiy asosda o'rganish psixolingvistika va pedagogika fanlarining kesishgan nuqtasida shakllanadi, chunki ushbu jarayon insonning psixik jarayonlari, tilni qabul qilish mexanizmlari hamda ta'limiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini mujassamlashtiradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tinglab tushunish kompetensiyasi o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda markaziy o'rin tutadi. Bu jarayon insonning eshituv idroki, fonematik farqlash, kognitiv faoliyati va semantik tahlili bilan chambarchas bog'liqdir. Psixolingvistika nuqtayi nazaridan, tinglash jarayoni miyaning bir nechta funksional zonalarida bir vaqtning o'zida kechadi hamda nutq signallarini qabul qilish, ularni qayta ishlash va mazmunini anglash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tinglab tushunish ko'nikmalari pedagogik yondashuvlar asosida shakllantiriladi. O'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos matnlarni tanlash, audioresurslardan foydalanish, interfaol mashqlar va vaziyatli topshiriqlar orqali tinglab tushunish kompetensiyasi bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Bu jarayonda o'qituvchining roli nihoyatda muhim bo'lib, u o'quvchilarning diqqatini jamlash, ma'no hosil qilish va tushunish darajasini baholash uchun qulay sharoit yaratadi.



Tinglab tushunish jarayonida diqqat va eshituv xotirasi muhim o'rin tutadi. O'quvchi eshitilgan nutqning qisqa muddatli qismlarini xotirasida saqlaydi, ular orasidagi mantiqiy bog'lanishlarni tiklaydi va butun matn mazmunini anglaydi. Shu bilan birga, semantik tahlil asosiy g'oyalarni aniqlash, tafsilotlar va faktlarni farqlash imkonini beradi. Bu jarayon o'quvchining lingvistik kompetensiyasini hamda umumiy kommunikativ kompetentligini mustahkamlaydi.

Pedagogik yondashuvda tinglab tushunish kompetensiyasi kommunikativ kompetentlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Tinglab tushunish orqali o'quvchi og'zaki nutqni qabul qilish, axborotni qayta ishlash va o'z fikrini aniq hamda izchil ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli tinglab tushunish kompetensiyasini shakllantirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Psixolingvistik nuqtayi nazarga ko'ra, tinglash jarayonida miyaning Broka va Vernike markazlari faol ishtirok etadi. Broka markazi nutqni hosil qilishda, Vernike markazi esa nutqni idrok etishda muhim vazifani bajaradi. Shu bilan birga, nutqni tushunish jarayonida o'quvchi fonemalarni farqlaydi, so'z va gaplarni semantik birlik sifatida anglaydi hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni tiklaydi. Vigotskiy nazariyasiga ko'ra, tilni idrok etish ijtimoiy muhit ta'sirida rivojlanadi. Shu sababli o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot sifatini oshirish, turli nutqiy vaziyatlarni yaratish hamda kontekstual materiallardan foydalanish tinglab tushunish jarayonining samaradorligini oshiradi. Ijtimoiy-madaniy kontekst tinglovchining nutqni tushunish mexanizmlarini sezilarli darajada kuchaytiradi. Tinglab tushunish kompetensiyasining samarali shakllanishida pedagogik metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Interfaol mashqlar, audio matnlarni tahlil qilish, kontekstual savollar va muhokamalar o'quvchilarning nutqni idrok etish darajasini oshiradi. Shu bilan birga, ularda taxmin qilish, asosiy g'oyalarni ajratib olish va mantiqiy xulosalar chiqarish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Kognitiv yondashuvga ko'ra, tinglab tushunish faqat tashqi nutq signallarini qabul qilish emas, balki ularni tinglovchining avvalgi tajribasi, lingvokognitiv modeli va mantiqiy kategoriyalari bilan uyg'unlashtirish jarayonidir. Shu sababli o'quvchilarni tinglash faoliyatiga jalb etishda motivatsiya va interaktivlik muhim omillar hisoblanadi. Tinglab tushunish jarayonida diqqatning barqarorligi muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari diqqatini uzoq vaqt davomida jamlay olmaganligi sababli mashqlar qisqa, mazmunan boy va qiziqarli bo'lishi lozim. Shu bilan birga, eshituv xotirasi faoliyatini rivojlantiruvchi takrorlash, izohlash va vizual yordam vositalaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy xususiyatga ega bo'lib, ilmiy-pedagogik va psixolingvistik adabiyotlarni tahlil qilish metodlariga asoslandi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy va tizimli tahlil, psixolingvistik hamda pedagogik konsepsiyalarni umumlashtirish va ilmiy manbalarni sintez qilish. Nazariy asos sifatida I. A. Zimnyaya, A. A. Zalevskaya, L. S. Vigotskiy va boshqa olimlarning psixolingvistika hamda pedagogik psixologiyaga oid ilmiy qarashlari o'rganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Psixolingvistik nuqtayi nazardan, tinglab tushunish murakkab idrok jarayoni bo'lib, unda fonemalarni farqlash, akustik signallarni kodlash, semantik ma'noni aniqlash hamda nutqni situativ kontekstga mos ravishda talqin qilish kabi bosqichlar amalga oshadi. A. A. Zalevskaya, O. N. Kabanova-Meller, I. A. Zimnyaya kabi olimlar tinglash jarayonini psixik jarayonlarning faol ishlashi bilan bog'lab, tinglovchi, avvalo, akustik axborotni qabul qilishi, uni qisqa muddatli xotirada qayta ishlashi, semantik tahlil orqali mazmunini aniqlashi va oxir-oqibat umumiy fikrni shakllantirishi haqida ta'kidlaydilar. Tinglash jarayonida idrokning tezligi, diqqatning barqarorligi, eshituv xotirasining sig'imi hamda nutqni avtomatik qayta ishlash qobiliyati muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Psixolingvistika tinglab tushunishni, shuningdek, oldindan taxmin qilish mexanizmlari bilan bog'liq holda ham izohlaydi. O'quvchi tinglayotgan matn mazmunini faqat eshitgan so'zlar orqali emas, balki mavjud tajribasi, fon bilimlari va vaziyatni anglash darajasi orqali ham talqin qiladi. Bu jarayon "kognitiv taxmin qilish strategiyasi" deb yuritiladi va zamonaviy ta'limda tinglab tushunishni rivojlantirishning asosiy psixologik mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi.

Pedagogik yondashuv tinglab tushunish kompetensiyasini o'quv jarayonida rejalashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat sifatida talqin qilib, uni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi. Pedagogik nuqtayi nazardan, tinglab tushunish o'quvchining kommunikativ kompetentligini shakllantiruvchi muhim komponent bo'lib, u muloqotga kirishish, nutq mazmunini anglash, axborotni qayta ishlash hamda o'z fikrini ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida tinglab tushunishning o'ziga xos jihati shundaki, o'quvchilar hali yetarli lingvistik tajribaga ega emas. Shu sababli o'qituvchining nutqiy materiali, ovoz tembri, nutq sur'ati, pauza va urg'u kabi vositalardan unumli foydalanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik

gogik jarayonda tinglab tushunishni rivojlantirish, asosan, muloqotga asoslangan o'qitish, multimodal taqdimotlar, ovozli matnlar, videoresurslar va interfaol metodlar orqali tashkil etiladi. Zamonaviy didaktika tinglashni passiv jarayon sifatida emas, balki faol muloqotning muhim shakli sifatida baholaydi. Shu bois tinglayotgan o'quvchi faol ravishda taxmin qiladi, ma'lumotlar o'rtasida bog'lanishlarni hosil qiladi, asosiy g'oyani aniqlaydi, mazmunni baholaydi va o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi. O'qituvchi esa ushbu jarayonni to'g'ri yo'naltirishi hamda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydigan vaziyatlarni yaratishi lozim.

Tinglab tushunishning pedagogik asoslari o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishga ham tayyanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatning beqarorligi, eshituv xotirasining cheklanganligi va nutqiy tajribaning yetarli emasligi tinglash jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli pedagogik jarayon izchillik, takroriy tinglash, qisqa matnlardan foydalanish hamda vizual tayanchlar bilan boyitish tamoyillariga asoslanadi.

O'quvchilarning qiziqishlariga mos tinglov materiallarini tanlash esa ularning motivatsiyasini oshiradi. Tinglab tushunish kompetensiyasining shakllanishi ijtimoiy va madaniy omillar bilan ham uzviy bog'liq bo'lib, L. S. Vigotskiy ta'kidlaganidek, har qanday nutqiy faoliyat ijtimoiy muhitda shakllanadi. O'quvchilar o'qituvchi nutqi, tengdoshlari bilan muloqot hamda o'quv muhitidagi til birliklarini eshitish orqali tilni o'zlashtiradilar. Demak, tinglash pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, u ilmiy asoslangan metodik ta'minot bilan boyitilganda o'quvchilarning lingvistik va kognitiv rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu tariqa, tinglab tushunish kompetensiyasi psixolingvistik jarayonlar va pedagogik yondashuvlarning uzviy uyg'unligi asosida shakllanadi.

Psixologik jihatdan u nutqni eshitish, idrok etish, tahlil qilish va mazmunini anglash mexanizmlariga tayyanadi. Pedagogik jihatdan esa mazmunni o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, motivatsion va interfaol metodlar asosida yetkazish orqali ushbu kompetensiya bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Mazkur kompetensiyaning to'laqonli shakllanishi o'quvchining umumiy o'qish savodxonligi, kommunikativ madaniyati va nutqiy faoliyatini rivojlantirishning muhim asosi hisoblanadi.

## XULOSA

Nutqni idrok etish jarayonida tinglovchi matn mazmunini oldindan taxmin qiladi, asosiy g'oyalarni aniqlaydi va semantik tahlil asosida mantiqiy xulosalar chiqaradi. Bu esa o'quvchilarning muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bilan birga, tilni to'g'ri va aniq tushunish imkoniyatini yaratadi. Pedagogik yondashuvda tinglab tushunish kompetensiyasini shakllantirishda multimodal resurslardan foydalanish tavsiya etiladi. Audio, video, vizual materiallar va nutqiy vaziyatlarni uyg'unlashtirish o'quvchilarning tushunish darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Shu bilan birga, o'quvchilarga kontekstual va real hayotiy vaziyatlarda nutqni tushunish imkoniyatlari yaratiladi. Tinglab tushunishning kognitiv jarayoni nutqning fonematik va suprasegment birliklarini farqlash, sintaktik va semantik vositalar asosida mantiqiy bog'lanishlarni hosil qilishni talab qiladi. O'quvchi avvaldan mavjud bilimlarini yangi ma'lumotlar bilan uyg'unlashtirib, matnning yaxlit mazmunini anglaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Зимняя И. А. Основы психолингвистики. – Москва: Издательство Московского государственного университета, 2010. – 480 с.
2. Залевская А. А. Психология языка и речи. – Москва: Академия, 2001. – 320 с.
3. Выготский Л. С. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика, 1996. – 536 с.
4. Rost M. Teaching and Researching Listening. 3rd ed. – London: Routledge, 2011. – 408 p.
5. Vandergrift L., Goh C. C. M. Teaching and Learning Second Language Listening: Metacognition in Action. – New York: Routledge, 2012. – 315 p.
6. Field J. Listening in the Language Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 366 p.
7. Brown H. D., Lee H. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. 4th ed. – White Plains, NY: Pearson Education, 2015. – 624 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №7(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.